XALQ DEPUTATLARI JIZZAX SHAHAR KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-57-147-3-55-K/23 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahrining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunining 6 va 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” gi Qonuniga muvofiq hamda Jizzax viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 27 dekabrdagi 01-20-08-01-33/418-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax shahar bo‘yicha 2024 yil uchun mahalliy budjet daromadlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar 1-ilovaga muvofiq hamda shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1a-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2024 yil uchun Jizzax shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq qabul qilinsin.

4. Umumdavlat soliqlaridan Jizzax shahar mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori
3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratma meyorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan shahar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda shahar G‘aznachilik xizmati bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Qarorga asosan 2024 yilda:

A) Quyidagi soliq turlari shahar mahalliy budjetiga to‘lig‘icha o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan, shuningdek jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

Yer qaridan foydalanganlik uchun solig‘i (noruda)

Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari;

B) shahar mahalliy budjetiga quyidagi ulushlarda:

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 30 foizi;

yuridik shaxslarning yer solig‘idan tushumlarning 10 foizi;

Xususiylashtirishdan tushadigan tushumlarning 50 foizi;

yer uchastkalariga bulgan xukuklarni sotishdan tushgan pul mablag‘larining 50 foizi;

6. Jizzax shahar mahalliy budjetining 2024 yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Shahar mahalliy budjeti daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga murojaat qilishi qonun bilan belgilanganligi inobatga olinsin.

8. Jizzax shahar mahalliy budjetining 2024 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga aholini faol jalb etish va joylardagi dolzarb muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida tashkil etilgan «Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi»ga mahalliy budjet tasdiqlangan xarajatlarining 5-10 foiziga teng miqdorida 6-ilovaga muvofiq hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning kamida 30 foizini rejalashtirilishi ta’minlansin.

10. 2024 yil uchun shahar budjetining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lari miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. Qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg‘armalari mahalliy budjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2024 yil uchun shaharning shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 9-ilovaga hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv. m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunga ko‘ra, shahar soliq inspeksiyasi (J.Axbo‘tayev) tasdiqlangan koeffitsiyentlar va soliq stavkalariga muvofiq 2024 yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarga yer solig‘ini hisoblash vazifasi yuklatilsin.

Bunda, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2023 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Shahar mahalliy budjetida shakllangan qo‘shimcha manbalar moliya yili davomida tegishlicha Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan shahar hokimligi takliflari asosida, Kengash karorlariga asosan ishlatilishi belgilansin. Kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni moliyalashtirish holatlari yuzaga kelganda shahar hokimining qaror va farmoyishlari asosida ishlatilib, keyinchalik Xalq deputatlari Kengashlariga hisobot berib borilsin.

14. Shahar hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy budjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbaa mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

15. Shahar hokimligi hududiy byujet taksimlovchilar bilan birgalikda tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini ta’minlash.

Budjet ijrosining ochiqliligini ta’minlash maqsadida

Budjet mablag‘i taqsimlovchilari;

har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari va davlat xaridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtirsin.

Shahar soliq inspeksiyasi soliq imtiyozlari ro‘yxatini, shuningdek taqdim etilgan soliq imtiyozlarining miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq to‘lovchilari kesimida o‘z rasmiy veb-saytlariga har chorak yakunlariga ko‘ra, chorakdan keyingi oyning 25-sanasidan kechiktirmay joylashtirilishi ta’minlansin.

Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar kesimida shahar mahalliy budjetidan ajratiladigan mablag‘lar va ularni ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z rasmiy veb-saytlariga har chorak yakunlariga ko‘ra, chorakdan keyingi oyning 25-sanasidan kechiktirmay joylashtirsin.

17. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Ergashev, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Abdujalilov), shahar solik inspeksiyasi (J.Axbo‘tayev)larga 2024 yildagi budjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

18. Mazkur qaror “Jizzax ovozi” gazetasida e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

20. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Shahar hokimi **K.Xolmurodov**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
1-ilova

Jizzax shahar bo‘yicha 2024 yil uchun mahalliy budjet daromadlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar

№	Daromadlar turi	Jizzax shahar
I.	**Bevosita soliqlar**	**622 288 000**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*471 645 000*
	ajratma meyori (foizda)	***30%***
	Mahalliy budjet	*141 493 500*
2	Yuridik shaxslarning foyda solig‘i	*150 643 000*
	ajratma meyori (foizda)	***0%***
	Mahalliy budjet	0
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**287 421 000**
	To‘lig‘icha tuman (shahar) budjetlarida qoldiriladigan soliq turlari	**49 177 000**
1	Tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha qatiy belgilangan soliq	*9 533 000*
	ajratma meyori (foizda)	***100%***
	Mahalliy budjet	*9 533 000*
2	Jismoniy shaxslarning mol-mulki solig‘i	*21 300 000*
	ajratma meyori (foizda)	***100%***
	Mahalliy budjet	*21 300 000*
3	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	*16 000 000*
	ajratma meyori (foizda)	***100%***
	Mahalliy budjet	*16 000 000*
4	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanilganlik uchun soliq	0
	ajratma meyori (foizda)	***100%***
	Mahalliy budjet	0
	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*1 589 000*
5	**ajratma meyori (foizda)**	***100%***
	Mahalliy budjet	*1 589 000*
6	Ijara to‘lovi	*755 000*

	Viloyat va tuman (shahar) mahalliy budjetlarida tartibga solinadigan soliq turlari	**98 773 000**
1	Aksiz solig‘i (benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moli)	*33 412 000*
	ajratma meyori (foizda)	***0%***
	Mahalliy budjet	0
2	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	*32 336 000*
	ajratma meyori (foizda)	***0%***
	Mahalliy budjet	*0*
3	Yuridik shaxslardan yer solig‘i	*33 025 000*
	ajratma meyori (foizda)	***10%***
	Mahalliy budjet	3 302 500
	To‘lig‘icha viloyat budjetida qoldiriladigan soliq turlari	**139 471 000**
1	Korxonalar aylanmasidan olinadigan soliq	*36 286 000*
	ajratma meyori (foizda)	
	Mahalliy budjet	*0*
2	Mahalliy yig‘imlar	*43 183 000*
	ajratma meyori (foizda)	
	Mahalliy budjet	*0*
3	Davlat boji	*38 641 000*
	ajratma meyori (foizda)	
	Mahalliy budjet	0
4	Jarimalar	*19 673 000*
	ajratma meyori (foizda)	
	Mahalliy budjet	0
5	Davlat korxonalarining foydasidan daromad	*188 000*
6	Xususiylashtirishdan tushum	1 500 000
	ajratma meyori (foizda)	***100%***
	Mahalliy budjet	*750 000*
III	**O’TKAZIB BERILADIGAN DAROMAD (Aksiz mobil, Tamaki va alkogol)**	*0*
IV.	**JAMI BUDJET (KONTINGENT) DAROMADLARI**	**909 709 000**
V.	**JAMI MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI**	**194 723 000**
VI.	**TRANSFERTLAR**	**1 046 822**

1a-ilova

Jizzax shahar mahalliy byudjeti daromadlarining
2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

Ming so‘mda

T/R	**Daromad turlari**	**Jami**
JAMI		**195 769 822**

1	Tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha qatiy belgilangan soliq	9 533 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	141 493 500
3	Aksiz solig‘i, jami	-
	Shu jumladan:	-
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moli soliq	-
4	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	-
5	Yuridik shaxslardan yer solig‘i	3 302 500
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 589 000
7	Korxonalar aylanmasidan olinadigan soliq	-
9	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	16 000 000
10	Jismoniy shaxslarning mol-mulki solig‘i	21 300 000
10	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanilganlik uchun soliq	-
12	Xususiylashtirishdan tushum	750 000
13	Alkogol aksiz solig’i (shu jumladan pivo)	-
14	Mobil aloqaga aksiz solig’i	-
15	Yig‘imlar	-
16	Ijara	755 000
17	Transfert	1 046 822

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Jizzax shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming.so’m

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil
Shahar bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**195 769 822,0**
1	Shahar maktabgacha va maktabgacha ta’limi bo‘limi	31 922 660
	Shundan:	
	Maktabgacha ta’lim	20 262 895
	Maktab ta’lim	12 150 485
2	Shahar Tibbiyot birlashmasi	65 678 567
3	Tibbiy ijtimoiy xizmatlar	
4	Shahar Madaniyat bo‘limi	5 372 073
	Shundan:	
	1-son musiqa va san’at maktabi	2 321 280
	2-son musiqa va san’at maktabi	2 022 000
6	Shahar sport bo‘limi	4 433 835
8	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	23 547 490
9	Ijtimoiy kunikma markazi	126 789
10	Shahar hokimligi zaxira jamgarmasi	1 741 804
11	Shahar veterinariya bo‘limi	1 665 894
12	**Shahar obodonlashtirish boshqarmasi**	**34 351 837**
	Shundan:	
	Drenaj ishlari	379 847
	Ichki yullarni ta’mirlash	4 000 000
13	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi	2 590 499
14	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	19 847 654

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Jizzax shahar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (qatiy belgilangan soliq)	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Ijara to‘lovi	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq	Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq (noruda)	Xususiy-lashti-rishdan tushum (Davlat ob’ekt-larini sotishdan tushum)
1	Jizzax shahri	30	0	100	100	100	100	0	10	100	100	50

Izoh: *** Yer uchastkalariga bo‘lgan xuquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari

Budjet tashkilotlari asosiy vositalari sotilishidan tuman va shahar budjetiga tushumlar
Viloyatga bo‘ysunadigan tuman va shahar budjetining boshqa tushumlari

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
4-ilova

Jizzax shahar mahalliy budjetining 2024 yil daromadlari rejasi

ming so'mda

Hudud nomi	**Jami daromad**	**shundan**			
		O'tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, Tamaki va alkogol)	**Soliq rejasi**	**shundan**	
				Shahar va tumanlar budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori	**Viloyat budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori**
Jizzax shahri	909 709 000	0,0	909 709 000	194 723 000	714 986 000

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
5-ilova

Jizzax shahar mahalliy budjetining 2024 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Jami daromadlar	Shundan			
		Mahalliy budjet daromadlar	O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, Tamaki va alkogol)	Tartibga soluvchi transfert miqdori	Mahalliy budjet xarajatlari
Jizzax shahri	195 769 822	194 723 000	0,0	1 046 822	195 769 822

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024 yil uchun "Fuqarolik tashabbusi jamgarmasi"ga ajratiladigan mablag‘ miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Jizzax shahar	**19 847 654,0**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
7-ilova

Jizzax shahar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Jizzax shahar	**1 222 000,0**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
8-ilova

Jizzax shahar mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Jizzax shahar	**1 741 804,0**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
9-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	**Hudud nomi**	**Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)**	**Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (ming.so‘mda)**
1	Jizzax shahar	1,15	70 380,0

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-147-3-55-K/23-son qaroriga
10-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (so‘mda)
1	Jizzax shahar	1,20	768,0